

15-DARS. RANG-BARANG TOSHBAQA

Dars maqsadlari:

- muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish (juftlikda ishlash qobiliyati, faol tinglash ko'nikmalari, o'z fikrini aniq ifodalash, samarali muloqot olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish mahorati);
- fazoviy hamda ko'rgazmali-tasviriy tafakkurni rivojlantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, toshbaqa andozasi, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'quvchilar har uchinchi harfni o'qib va so'zni tuzib, shifrn topadilar.

ARCHNEVARINETPUJATOXGEA

O'qituvchi bugun darsda o'quvchilar juft-juft bo'lib ishlashlari va hajmli toshbaqa yasashlari kerakligini ma'lum qiladi.

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darslikdagi rasmlarga qarang. Nima ko'ryapsiz? (*toshbaqa*)

Bu toshbaqaning kosasi nimadan yasalgan? (*rangli qog'oz tasmalaridan.*)

Tasmalar qanday tartibda yopishtirilgan?

O'quvchilar partadosh do'stlari bilan birgalikdagi ishni muhokama qilib, vazifani bajarish rejasini tuzadilar.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

O'quvchilar jummalarni tugatishadi:

Endi men ... qila olaman

Men uchun ... qiyin bo'ldi

Menda ... haqida savollar tug'ildi.

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilarda yakuniy natijaga erishish uchun harakatlarning to'g'ri ketma-ketligini bajarish ko'nikmasini shakllantirish;
- o'quvchilarga ko'zlangan natijani qo'lga kiritish maqsadida jamoa bo'lib faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirishni o'rgatish.

MUSTAHKAMLASH**Dars maqsadlari:**

- san'at olamiga qiziqishni oshirish;
- ijodiy qobiliyat va tasavvurni rivojlantirish.

Kerakli materiallar: tayyor mahsulotlar.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. "Texnologiya" nima? Bu so'zni qanday tushunasiz?
2. Darslarda nimalarni o'rgandingiz?

"Qor uyumi" usulini qo'llash tavsiya etiladi: o'quvchilar navbatma-navbat texnologiya darslarida o'rganganlarini va olgan taassurotlarini aytib berishadi. Topshiriqni so'zlar sonini cheklash orqali murakkablashtirish maqsadga muvofiq. Masalan: texnologiya darslarida o'rganganlaringizni faqat 5 ta so'zdan iborat bitta gap bilan ifodalang.

3. Namuna tahlili (30 daqiqa).

Texnologiya darsida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun o'yinli mashg'ulotlar o'tkaziladi.

O'quvchilar topishmoqlarni yechadilar, rasmlar orasidan javobini topadilar va shu topishmoq-so'zni plastilin yoki qog'ozdan qanday "yasash" mumkinligi haqida so'zlab beradilar.

Namuna:

Chaqqon sakraydi jonivor,
Dumi o'rniga yumshoq mo'yna.
Quloqlari dikkayib turar,